

**O'ZBEK MILLIY QADRIYATLARI VA MILLIYLIGIMIZNI
HAYOTIMIZDAGI MUHIM O'RNI**

**ВАЖНОЕ МЕСТО УЗБЕКСКИХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И
НАЦИОНАЛЬНОСТИ В НАШЕЙ ЖИЗНЕ.**

**THE IMPORTANT PLACE OF UZBEK NATIONAL
VALUES AND NATIONALITY IN OUR LIVES**

Shodiyeva Shahina Shoirjon qizi

*Farg'ona Davlat Universiteti Pedagogika, psixologiya va
san'atshunoslik fakulteti, Musiqa ta'limi va madaniyat " kafedrası*

Musiqa ta'limi, 1- bosqich talabasi

Shaxinashodiyeva617@gmail.com

+998932014428

Annotatsiya: Ushbu maqolada – milliylikimizning ahamiyati va hayotimizdagi o'rni. O'zbek milliy qadriyatlari (urf – odatlar, taomlari, milliy liboslari) va o'zbekligimiz ildizi haqida ta'kidlab o'tilgan.

Kaliy so'zlar: milliylik, o'zbekona qadriyatlar, liboslar, tarix ildizi.

Аннотация: В этой статье подчеркивается значения нашей национальности и ее роль в нашей жизни, узбекские национальные ценности (традиции, еда, национальные костюмы) и корни нашего узбекизма.

Ключевые слова: национальность, узбекские ценности, костюмы, исторические корни.

Abstract: This article highlights the importance of our nationality and its role in our lives, Uzbek national values (traditions, foods, national costumes) and the roots of our Uzbekistan.

Key words: nationality, Uzbek values, costumes, historical roots.

O'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan bebaho qadriyatlari bugungi kundagi zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasibo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab – avayla, ularga amal qilib yashashimiz, doimo yodda tutishimiz kata ahamiyat kasb etadi.⁵⁸ Yer yuzida har bir millatfaqat uning o'ziga xos bo'lgan

⁵⁸ QADRIYATLAR.UZ – o'zbekonamilliylikimiz.

an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lganbunday qadriyat va an'analar bir yoki ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniytning necha yillik tarixi shuni ta'kidlaydikibiror bir narsa an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi juda uzoq davrlarni talab qiladi. Yillar asrlar davomida muayyan qarash,odat, tushuncha, tajribalarzamonlar, avloodlar sinovidan o'tadi so'ngra sayqal topib boradi.agar ular keying avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf - odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin. Millat uchun juda kata ahamiyatga ega bo'lgan entikjihat va xususiyatlar bilam bog'liq qadriyatlar milliy qadriyatlar deyiladi.⁵⁹ Milliy qadriyatlar millatning tarixi, yashash tarsi ,ma'naviyati hamda madaniyati bilam chambarchas bog'liqholda namoyon bo'ladi.O'zbek xalqining asrlardan asrlarga 'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Masalan, o'zi tug'ilib o'sgan yurtiga bo'lgan ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hay ova andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish kabi ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimiz asosini tashkil etadi. Bizning o'zbek xalqimiz juda qadimdan boshlaboq,kamchiliklarni yengib o'troq hayot kechira boshlagan keyin esa shunday hayot tarziga o'rgangan. Odamlar o'zi o'rnashib qolgan yerni, uning atrofidagi suv manbaalarini qadrlashni, asrashni odat qilganlar.chunki, mana shu suv va yer yordamida olinadigan hosil insonlarning rizqi, tirikchiligini muhim ahamiyati hisoblangan. Bunday o'troq yashash hayot tarsi insonlari jamoa bo'lib, bir – biriga yelkadosh bo'lib yashash, mehnat qilishi, mehnat munosabatlarni o'zaro ayirboshlash orqali savddo munosabatlarini kirib kelishiga olib kelgan. Shu tariqa qishloq xo'jaligihama shahar madaniyati yuksala borgan.⁶⁰ Yurtimizda bunyod etilgan tarixiy obidalar ya'ni, Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz, va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas. Albatta, bizning milliy urf-odatlarimiz boshqa xalqlardan rangbarangligi, jozibadorligi va o'zbekona miliy kiyimlarimiz insonga zavq bag'ishlaydi. Hozirga qadar qadrlanadigan milliy urf-odatlarimizdan:

1) To'ylarda ijro etiladigan qadrli kuyimiz desak ham bo'ladi „ **YOR-YOR** “ bu kuysiz hech qaysi to'ylarni to'y sifatida tasavvur eta olmaysiz;

2) Turli xil milliy o'zbekona o'yinlarimiz; „ Oq terakmi, ko'k terak “ „ Shuguna olish “ va o'nlab o'yinlar bu o'yinlarsiz albatta, yoshligimizni tasavvur qila olmaymiz;

⁵⁹ An'analarhaqidahikmatliso'zlar TIZILMASI.

⁶⁰ Mutola uchun kitobidan „ Ko'kaldosh “ Jaloliddin Ahmedov

3) Endigi navbat albatta an'ana va qadriyat bo'lib qolgan milliy bayramlarimiz: „Navro'z “ „ 9- may Xotira va qadrlash kuni “ bu bayram ham juda keng nishonlanadi, „ Hayit “ bayrami, bahorda o'tkaziladigan „ Varraklar uchirish “ bayram bellashuvlari va h.k larni o'z ichiga oladi. ⁶¹

Albatta, bunday milliy an'ana qadriyatlarimiz juda ko'p bularni doimo yodda saqlab, qadrlab, avaylab kelasi avlodlarga hadiya etish ham bizning qo'limizda. Shuning uchun hr bir inson o'z an'analari va urf-odatlar haqida o'zining ma'lumotiga ega bo'lishi zarur.

Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tugilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadogan millat hisoblanadi. Demak, xalqimizning o'z yurtiga o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi, shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmondo'stlik, yordamga muhtojlarga shavqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr oqibat, ahli ayolini – oilasini asrab avaylash, maishiy hayotda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) QADRIYATLAR.UZ – o'zbekonamilliyiligimiz.@gml.com
- 2) An'analarhaqidahikmatliso'zlar TIZILMASI.
- 3) Mutola uchun kitobidan „ Ko'kaldosh “ Jaloliddin Ahmedov
- 4) Qadriyatlar ravnaqu yoki inqiroz bilan yuzma yuzligi.- @kitob.izla.uz.www

⁶¹ Qadriyatlar ravnaqu yoki inqiroz bilan yuzma yuzligi.- @kitob.izla.uz.www